



UNIVERSITY OF
WESTMINSTER



O'zbekiston – Buyuk Britaniya ta'lim forumi

2025-yil 15-16-may

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Britaniya Kengashi, O'zbekistonning Londondagi elchixonasi, Vestminster universiteti, London Saut-Benk universiteti, Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti hamkorligida

Maqsad: Forum O'zbekiston, Buyuk Britaniya va global miqyosdagi oliy ta'lim tizimi uchun ustuvor yo'nalishlar, ushbu yo'nalishlardagi vazifalarga samarali erishish yo'llari, xususan, transmilliy ta'lim orqali erishish masalalariga murojaat qiladi. Tadbir davomida oliy ta'lim siyosati, amaliyoti hamda oliy ta'limdagi hamkorlik masalalari muhokama markazida bo'ladi.

O'tkazilish joyi:

Birinchi kun: London Saut-Benk universiteti
Ikkinchi kun: Vestminster universiteti

1-kun

O'tkazilish joyi: London Saut-Benk universiteti xabi, 100-115 Borough Road, London, SE1 6LN.
LSBU Sautuork kampusiga borish yo'li: [Maps and travel](#) | [London South Bank University](#)

09:30-10:10	Ro'yxatdan o'tish / Networking <i>London Saut-Benk universiteti xabi, Ko'rgazmalar zali</i>
10:10-11:00	Tadbirning ochilishi • Prof. Debora Jonston, London Saut-Benk universiteti prorektori (TBC) • Janob Ravshan Usmonov, O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi Elchisi • Otabek Mahkamov, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari • Denis Voddingham, Britaniya Kengashi direktori, O'zbekiston <i>LSBU Xab, Sautork ma'ruzalar zali</i>

1-sessiya**11:00-12:30****Ish bilan ta'minlash va barqaror o'zgarishlarni rivojlantirish maqsadida universitet hamda ishlab chiqarish hamkorligi****Sessiya tavsifi**

Ijtimoiy sohadagi o'zgarishlar va barqaror rivojlanish uchun mahalliy va xalqaro ish beruvchilar bilan hamkorlik: Talabalarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini oshirish va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda oliy ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikning o'rnini. Hozirgi kunda ko'plab oliy ta'lim muassasalari o'z korporativ strategiyalariga BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) integratsiya qila boshlagan va kelajakdagi dunyo taraqqiyotini shakllantirish hamda yaxshilashda ijtimoiy muammolarga murojaat qilish oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri ekanligini tan olmoqdalar. Oliy ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro kuchli va barqaror hamkorlikni yo'lga qo'yish mahalliy muammolarni aniqlash va ularni hal etishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu o'z navbatida mahalliy innovatsiyalarni kengroq miqyosdagi global muammolarni hal etishga moslashtirish imkonini beradi.

Ushbu mazmunli sessiya davomida, quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

- Buyuk Britaniya va O'zbekistondagi universitetlar qay tarzda oliy ta'lim-ishlab chiqarish hamkorligini yo'lga qo'ygan va bu hamkorlik har ikki mintaqada barqaror rivojlanishga qanday hissa qo'shmoqda.
- Ishlab chiqarish o'rtasidagi strategik hamkorliklar talabalarining ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini qay daraja oshirmoqda va bunday hamkorliklar xalqaro miqyosda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga qanday xizmat qilmoqda.
- Oliy ta'lim-ishlab chiqarish hamkorligi doirasidagi loyihalarda ishtirok etish talabalarining hayotida qanday ijobiy o'zgarishlarga turtki bo'lmoqda.

Sessiya formati

O'z ichiga talabalar hamda bitiruvchilarni olgan mutasaddi ekspertlar paneli. Har bir panel a'zosi o'zlarining qisqacha taqdimoti bilan chiqish qiladi va so'ngra savol-javob qismiga o'tiladi.

Sessiya tashkilotchilari

Aissata Edmondson, Global hamkorlik bo'limi boshlig'i (LSBU Global)
Sofi Da Silva, Hamkorliklar bo'yicha menedjer (LSBU Global)

Sessiya raislari/moderatorlari

Tom Bodley direktor, Scott Strategic Alliances Director (University College London)

Sessiya ishtirokchilari

- Zafar Hoshimov, hamta'sischi (TEAM universiteti); Ta'sischi (Korzinka supermarketlari)

	• Hikmat Abdurahmonov, Hamta'sischi va bosh ijrochi direktor (TEAM universiteti); Hamta'sischi (HM Partners, GroundZero Kovorking markazlari, CLG Leasing Auto); Mamlakat direktori (Global Entrepreneurship Network) • Tom Bodli Skot, Strategik allianslar direktori (London universitet kolleji) (TBC) • Gulnara Otten, Grantlar va loyihalarni boshqarish bo'limi rahbari (London Saut Bank Universiteti) • <u>Kristina Kervin</u>, Ta'lim bo'yicha magistrant yordamchi va LSBU Energiya maslahat markazi rahbari(TBC) • Chidem Turkyilmaz, Cigdem Turkyilmaz, Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat arxitektura qurilish universiteti rektori • Maqsud Isakov, Geologiya fanlari universiteti rektori <i>LSBU Xab, Sautork ma'ruzalar zali</i>
12:30-13:20	Tushlik, networking <i>LSBU Xab, Ko'rgazmalar zali</i>
2-sessiya 13:30-15:00	Oliy ta'limga dual ta'lim va tadbirkorlikni integratsiya qilish: Buyuk Britaniya va O'zbekiston tajribasidan siyosatni shakllantirish va ilg'or amaliyotlar bilan o'rtoqlashish Sessiya tavsifi Mazkur sessiyada Buyuk Britaniya va O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari qanday qilib dual ta'lim va tadbirkorlikni o'z ta'lim tizimlariga joriy etayotgani, bu jarayon qanday qilib davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini o'zida mujassam etayotgani va talabalarning o'z kasbiy faoliyatiga mazmunli intilishlari bilan uyg'unlashib borayotgani muhokama qilinadi. Sessiya davomida so'zga chiquvchilar Buyuk Britaniyadagi "Apprenticeship Levy" modeli va sifat nazorati tizimlariga tayangan holda amaliyot orqali ta'lim olishga bo'lgan talab va stajyorlik modellarining zamonaviy talabalar va ish beruvchilar ehtiyojlariga mos ravishda qanday rivojlanayotganligini yoritib beradilar. Sessiya davomida shuningdek, tadbirkorlik sohasiga talabalarni keng jalb qilishga bo'lgan innovatsion yondashuvlar, xususan, biznes-inkubatsiya, mentorlik dasturlari va menejmentga ixtisoslashgan ta'lim imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. TEAM universitetining talabalarni tadbirkorlikka jalb qilishning kengayib borayotgan ekotizimi hamda LSBuning dual ta'lim bo'yicha yetakchiligi kabi keyslardan foydalangan holda, ushbu sessiyada quyidagi masalalar yoritiladi: • Oliy ta'lim siyosatlarining ta'lim dasturlarini taqdim etish, ularni moliyalashtirish va jarayonga ish beruvchilarni jalb etishga ta'siri

- Talabalarning qiziqishlari, kasbiy maqsadlari va akademik natijalariga mos holda stajyorlik va tadbirkorlik imkoniyatlarini loyihalash usullari
- Ekotizim yaratishda ilg'or amaliyotlar: samarali hamkorlik, inkubatsiya va mentorlik modellari
- O'zbekiston va Buyuk Britaniya o'rtasidagi hamkorlikdan chiqarilgan saboqlar: keng tatbiq etish mumkin bo'lgan va barqaror modellarni yaratish

Sessiya formati

Dual ta'lim va tadbirkorlik bo'yicha mutassadi ekspertlar paneli. Sessiya formati Buyuk Britaniya va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining o'zaro bir-biridan o'rganishini yuqori darajada rag'batlantiruvchi formatda ishlab chiqiladi.

Sessiya tashkilotchilari

Aissata Edmondson, Global hamkorlik bo'limi boshlig'i (LSBU Global)
Sofi Da Silva, Hamkorliklar bo'yicha menedjer (LSBU Global)

Sessiya raisi/moderatori

Darren Jeyms-Mitchel, Dekan o'rinbosari (LSBU Global)
Ulug'bek Halikov, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti prorektori

Seesiya ishtirokchilari

- Jennifer Kopland, Stajerlik va texnik ta'lim instituti (IfATE) bosh direktori; Prorektor (Ko'nikmalar portfeli bo'yicha) (London Saut Bank Universiteti)
- Dr. Mendi Krouford-Li, Universitet kasbiy ta'lim darajalari Kengashi (UVAC) bosh ijrochi direktori
- Rui Barros Silva, Tadbirkorlik menejeri (London Saut-Benk universiteti)
- Semmi Shummo, Stajyorlik dasturlari bo'yicha guruh direktori (London Saut Bank Universiteti); Kuzatuv kengashi a'zosi (Workwhile, Gateway Qualifications)
- Mark Makkena, Boshqaruvchi direktor (Mindful Education)
- Azamat Nurmatov, Dekan (TEAM universiteti)
- Bahtiyor Mahkamov, Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent Davlat axborot texnologiyalari universiteti rektori
- Olimjon To'ychiyev, Toshkentdagi Turin politexnika universiteti rektori
- Baxrom Mirkasimov, Toshkent Xalqaro Vestminster universiteti prorektori

LSBU Xab, Sautork ma'ruzalar zali

15:00-15:30

Kofe-breyk

LSBU Xab, Ko'rgazmalar zali

Session 3**15:30-16:15****Universitetlar talabalarni kelajakdagi mehnat bozoriga qanday tayyorlaydi?****Sessiya tavsifi:**

Butun boshli sohalar tez sur'atlarda paydo bo'lyapti va shunday sur'atlarda yo'qolib bormoqda. Siyosiy normalar o'zgarmoqda. Atrof-muhit bo'yicha holat esa yanada dolzarb tus olmoqda. Kelajakda hozirgi talabalarining 65% hali mavjud bo'lmagan kasblarda ishlashadi.

Hozirda oliy ta'lim muassasalari oldida asosiy savol turibdi: talabalarimizni nafaqat kelajakka, balki mavhum bo'lgan kelajakka qanday samarali tayyorlashimiz mumkin?

Mazkur sessiya Buyuk Britaniya va O'zbekiston ta'lim muassasalarini faqat ta'lim beruvchi emas, balki kelajakni shakllantiruvchi subyektlar sifatida o'z rollarini qayta ko'rib chiqishga chorlaydi. Sessiya davomida inklyuziv, sanoatga yo'naltirgan va transmilliy yondashuvlar orqali talabalarda zamonaviy dunyoda zarur bo'lgan moslashuvchanlik, barqarorlik va tadbirkorlik tafakkurini qanday shakllantirish mumkinligiga urg'u beriladi.

Sessiya formati: Muhokamani qisqa va tahlilga chorlovchi taqdimotlar ochib beradi, so'ng inklyuziv tarzda tashkil etilgan savol-javob qismiga o'tiladi. Muhokamalar madaniyatlararo fikr almashinuvi va hamkorlikka asoslangan muloqotni rag'batlantiradi.

Sessiya davomida quyidagi masalalar muhokama qilinadi:

- Oliy ta'limning rivojlanib borayotgan ichki va tashqi konteksti
- Tadbirkorlikka yo'naltirilgan ko'nikmalar majmui: talabalarda nafaqat ishga joylashuv balki moslashuvchanlik ko'nikmalari
- Institutsional inersiya va sonoatning yuqori moslashuvchanligi o'rtasidagi bo'shliqni to'ldirishda inklyuziv, sanoatga yo'naltirilgan va transmilliy yondashuvlardan foydalanish
- Qisqa muddatlarda natijadorlikka erishish maqsadida oliy ta'limdagi mavjud amaliyotlarni takomillashtirish
- Talabalarining o'zgarib borayotgan qadriyatlari, kutilma va xulq-atvorini tushunish

Sessiya tashkilotchilari/Moderatorlar

Muhammad Ali, Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i London Saut-Benk universiteti

Hikmat Abdurahmanov, TEAM universiteti ta'sischisi

Sessiya ishtirokchilari

Auditoriya

	<i>LSBU Xab, Sautork ma'ruzalar zali</i>
16:15 – 16:30	Yakunlovchi nutq Styuart Bannerman, Xalqarolashtirish bo'yicha prorektor (LSBU Global) <i>LSBU Xab, Sautork ma'ruzalar zali</i>
16:30 – 17:00	Anglashinuv memorandumlarini imzolash va hamkorlik muhokamalari

2-kun

O'tkazilish joyi: Vestminster universiteti, Regent Campus, 309 Regent Street, London, W1B 2HW

[Google Maps](#) yordamida yo'nalishni bilib oling.

09:00-09:30	Ro'yxatdan o'tish / Networking
09:30 – 10:00	Tadbirning ochilishi • Piter Bonfild, Vestminster universiteti prezidenti va rektori • Ravshan Usmonov, O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi Elchisi • O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy vakillari • O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy vakillari • Denis Voddingham, Britaniya Kengashi direktori, O'zbekiston
1-sessiya 10:00-11:15	Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish va ta'lim sifatini ta'minlash sohasida yuksaklikka erishish: chiqarilgan xulosalar va keyingi qadamlar Syessiya davomida O'zbekiston oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar bo'yicha ma'lumot beriladi, shuningdek, O'zbekiston-Buyuk Britaniya o'rtasida oliy ta'limda salohiyatni oshirish bo'yicha hamkorligi natijasida ishlab chiqilgan O'zbekiston oliy ta'lim boshqaruvi hamda Sifat kodekslari loyiha nusxalarini dastlabki sinovdan o'tkazish bo'yicha olingan ma'lumotlar taqdim etiladi. Shu bilan birga ushbu sessiyada O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarini boshqarish hamda ulardagi ta'lim sifatini ta'minlashga doir hamkorlikda ishlab chiqilgan me'yoriy yondashuvlar haqida ma'lumot beriladi. Sessiya tashkilotchisi Alison Jons, Advance HE bosh ijrochi direktori

Komiljon Karimov, Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti rektori

Jamilya Gulyamova, Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi direktori o'rinbosari

Sessiya raisi/moderatorlari

- Alison Jons, Advance HE bosh ijrochi direktori

Sessiyada so'zga chiquvchilar

- Komiljon Karimov, Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universiteti rektori
- Tullio Lobetti, Oliy ta'limda sifat masalalari bo'yicha mutaxassis, QAA Global
- Farhod Ahrorov, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori o'rinbosari
- Jamilya Gulyamova, Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi direktori o'rinbosari
- Firuza Ikromhonova, Toshkent Davlat pedagogika universiteti Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori

Sessiya maqsadlari

Oliy ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy jihatlaridan biri bu oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy hamda akademik mustaqillik berilishi hisoblanadi. Ushbu islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi omillar sifatida oliy ta'lim muassasalarining samarali boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishdir.

Ushbu sessiyada O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun ustuvor yo'nalishlar muhokama qilinadi, shuningdek, universitet boshqaruvi va sifat standartlari bo'yicha ishlab chiqilgan kodeks loyihalarini dastlabki sinovdan o'tkazish natijalari va ulardan chiqarilgan xulosalar taqdim etiladi. Bu ishlar O'zbekiston va Buyuk Britaniya o'rtasidagi hamkorlik doirasida amalga oshirilib, oliy ta'lim tizimida salohiyatni oshirish va hamkorlikda ishlab chiqilgan yangi yondashuvlarni sinovdan o'tkazishga qaratilgan.

Sessiyada oliy ta'lim muassasalarida sifatni ta'minlash va universitet boshqaruvi bo'yicha amalga oshirayotgan doimiy takomillashuv tashabbuslarining samaradorligini qanday baholashi mumkinligi, shuningdek, fikr almashinuvi va innovatsiyani rag'batlantiruvchi madaniyatni qanday yaratish kerakligi haqida so'z boradi. Shu bilan birga, sessiya davomida doimiy takomillashuvni qo'llab-quvvatlashda kasbiy rivojlanishning o'rnini ham muhokama qilinadi.

Sessiya davomida so'zga chiquvchilar O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvni va sifatni ta'minlash sohalarida yo'lga qo'yilgan hamkorlik bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning afzalliklarini ochib berish bilan bir qatorda bu jarayon qanday qilib sohadagi islohotlarni chuqurlashtirishi mumkinligi, xususan, ta'limning xalqarolashuvi va transmilliy ta'lim (TNE) dasturlarini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini ko'rsatib beradi.

11:15 – 11:30	Kofe-breyk
2-sessiya 11:30-12:45	Inklyuziv oliy ta'lim sohasida O'zbekiston va Buyuk Britaniya o'rtasida yanada kuchliroq hamkorlikni rivojlantirish Ushbu sessiyada O'zbekistonda inklyuziv oliy ta'lim sohasidagi asosiy rivojlanishlar ko'rib chiqiladi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Ishchi guruh tomonidan tayyorlangan Inklyuziv universitet tashabbuslari va "Yaxshi amaliyotlar qo'llanmasi"ni targ'ib qilish bo'yicha hisobotlar taqdim etiladi. Sessiya davomida Markaziy Osiyo universitetlarida o'quv dasturlariga inklyuziv yondashuvlarni joriy etish bo'yicha hamkorlik misollari bilan o'rtoqlashiladi hamda Britaniya Kengashi tomonidan moliyalashtirilayotgan va Buyuk Britaniya hamda O'zbekiston universitetlari ishtirokida amalga oshiriladigan ikki yangi "Nogironlar uchun inklyuziv ta'lim" hamkorlik loyihasi taqdimoti o'tkaziladi. Sessiya tashkilotchilari - Jamilya Gulyamova, Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi direktori o'rinbosari - Dibyesh Anand, Vestminster Universiteti (Buyuk Britaniya) Bandlik va global ishtirok masalalari bo'yicha prorektori Sessiya raisi/moderator - Denis Voddingham, Britaniya Kengashi direktori, O'zbekiston Session Participants - Gulchehra Rihsiyeva, Toshkent Davlat sharqshunoslik universiteti rektori - Jamilya Gulyamova, Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi direktori o'rinbosari - Martin Sevier, Nottingham trent universiteti katta o'qituvchisi - Adryu Lin, Vestminster universiteti prorektori - Olanrewaju Olaoye, Linkoln universiteti, ta'lim yo'nalishi yetakchisi - Usmon Sharifxo'jayev, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi direktori o'rinbosari Session Objectives Sessiya O'zbekistonda inklyuziv oliy ta'lim sohasidagi vaziyat va bu yo'nalishda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarga bag'ishlanadi. Sessiya Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (OTFIV) huzuridagi Inklyuziv universitet ishchi guruhi tomonidan tayyorlangan umumiy qisqacha sharh bilan boshlanadi. So'ng, inklyuziv oliy ta'lim manfaatdor tomonlarini aniqlash (stakeholder mapping) va "Inklyuziv oliy ta'lim bo'yicha ilg'or amaliyotlar qo'llanmasi"dan foydalanish bo'yicha amaliy qadamlar, shuningdek, asosiy manfaatdorlarni jalb qilish, xabardorlikni oshirish va O'zbekiston oliy ta'limida inklyuzivlikni rivojlantirishga qaratilgan milliy va xalqaro tashabbuslar haqida so'z yuritiladi. Sessiya davomida AELLCA dasturi doirasida Buyuk Britaniya hukumati tomonidan moliyalashtirilgan va Britaniya Kengashi orqali amalga oshirilgan "Ingliz tili va inklyuzivlik"

	loyihasi doirasidagi O'zbekiston–Buyuk Britaniya hamkorligi tajribasi va o'rganilgan saboqlar loyiha rahbarlari tomonidan taqdim etiladi. Yakuniy qismida Vestminster universiteti va Ist London universiteti yetakchiligida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan ikki yangi O'zbekiston–Buyuk Britaniya “Nogironlar uchun inklyuziv ta'lim” hamkorlik loyihalarining taqdimoti bo'lib o'tadi. Sessiyadan kutilayotgan natijalar Sessiya O'zbekistonda inklyuziv oliy ta'limni yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Unda universitet o'quv dasturlariga inklyuziv amaliyotlarni joriy etishga qaratilgan loyihalar natijalari taqdim etiladi va inklyuziv ta'limdagi ilg'or amaliyotlarni ulashish, amaliyotga joriy etish va keng targ'ib qilishni maqsad qilgan ikki yangi loyiha taqdimoti bo'lib o'tadi.
12:45 - 14:00	Tushlik
3-sessiya 14:00 - 15:00	O'zbekiston-Buyuk Britaniya transmilliy ta'lim hamkorligi: tajribalardan saboq chiqarish va oliy ta'limdagi keyingi islohotlarni qo'llab-quvvatlash Ushbu sessiyada transmilliy ta'limning (TMT) rivojlanishiga doir global tendensiyalar ko'rib chiqiladi, O'zbekistonda amalga oshirilgan transmilliy ta'lim mavjud holatini o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlar natijalari taqdim etiladi. Shuningdek, sessiya davomida 2024-yilda tashkil etilgan O'zbekistondagi TMT ilg'or amaliyotlar tarmog'i tomonidan amalga oshirilgan ishlar taqdim etiladi hamda sohadagi ilg'or tajribalardan misollar va ilmiy yo'nalishlardagi hamkorliklarning TMT rivojiga qo'shayotgan hissasi haqida chiqarilgan xulosalar bilan o'rtoqlashiladi. Sessiya tashkilotchilari • Sessiya raisi: • Komiljon Karimov, TXVU rektori • Stiven Uollis, Vestminster universiteti transmilliy ta'lim bo'yicha direktori Tayyorgarlik ishlariga mas'ul: Jamilya, Stiven Sessiya ishtirokchilari: • Eduardo Ramos, Britaniya Kengashi tbc • Griff Rayan, UUKi transmilliy ta'lim boshlig'i • Endryu Lin, Vestminster universiteti prorektori • Shuxrat Xolmuminov UDEA/Coventry asoschisi • Dildora Ishanxodjayeva, Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti prorektori • Talabalar Uyushmasi, Vestminster universiteti • Dono, Abdurahmonova, Buyuk Britaniyadagi O'zbekiston talabalar uyushmasi

- Jamilya Gulyamova, Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi direktori o'rinbosari

Sessiya maqsadlari

Britaniya Kengashi tomonidan transmilliy ta'limning afzalliklari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlari natijalariga ko'ra, TMT sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, oliy ta'limda salohiyatni oshirish va institutsional rivojlanishga xizmat qiladi, talabalarning ta'limiy tajribalari va bitiruvchilarning natijalarini yanada yaxshilaydi, barqaror jamiyatni shakllantirishga hamda ishtirokchi mamlakatlarning iqtisodiy rivojiga hamda barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Ushbu sessiyada davomida jahon miqyosida TMT landshafti va uning O'zbekistondagi asosiy xususiyatlariga to'xtaladi, shuningdek, yaqinda tashkil etilgan "O'zbekistondagi TMT ilg'or amaliyotlar tarmog'i" va uning ustuvor yo'nalishlari taqdim etiladi. Shu bilan birga sessiya davomida ushbu yo'nalishdagi eng yaxshi amaliyotlardan misollar keltiriladi hamda ushbu sohada amalga oshirilgan so'nggi tadqiqot natijalari bilan o'rtoqlashiladi.

Sessiyadan kutilayotgan natijalar

Sessiya ishtirokchilarga TMTning afzalliklari va ijobiy ta'siri, shuningdek, uning dunyo miqyosida va O'zbekistonda qanday ijobiy o'zgarishlarga olib kelayotgani haqida batafsil ma'lumot olish imkonini beradi. Ishtirokchilar shuningdek, yaqinda tashkil etilgan TMT ilg'or amaliyotlar tarmog'i va ushbu tarmoqqa a'zolikning foydali tomonlari haqida ma'lumot oladilar.

Sessiyada shuningdek, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan transmilliy ta'lim provayderlarining ilg'or amaliyotlari bilan tanishtiriladi hamda Buyuk Britaniya va O'zbekiston o'rtasidagi TMT hamkorliklari va oliy ta'lim bo'yicha xalqaro tajriba O'zbekiston oliy ta'lim tizimini rivojlantirishga qanday hissa qo'shishi mumkinligi muhokama qilinadi.

15:15 – 16:00	Sessiyalar bo'yicha xulosalar va keyingi qadamlar
16:00 – 16:30	Anglashinuv memorandumlarini imzolash va hamkorlik muhokamalari
16.30	Universitet kampusi bo'ylab ekskursiya